

O'zbekiston Respublikasi chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar oyi uchun dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar


I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 87 070 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 344 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 86 726 tani tashkil etdi.

2026-yilning yanvar oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 32 698,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar oyiga nisbatan 14,7 % ga o'sdi. Jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 6 772,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 137,7%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi esa 25 925,9 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 109,4 %).

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati


2026-yil yanvar oyi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi \(oylik\)](#)

**Chakana savdo hajmida yirik korxonalar, kichik biznes
va xususiy tadbirkorlikning ulushi bo'yicha dinamikasi**




II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 52 605 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 362 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 52 243 tani tashkil etdi.

Respublika bo'yicha 2026-yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 35 382,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 15,6 %ga o'sdi.

Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 9 983,9 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 122,1 %), kichik biznes subyektlarining tovar aylanmasi esa 25 398,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 113,2 %). Respublikada jami ulgurji savdo hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi 71,8 %ni tashkil etdi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi
2026-yil yanvar oyi, mlrd so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari
2026 yil yanvar oyi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 26 877 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 114 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 26 763 tani tashkil etdi.

2026-yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 15 171,7 mlrd so'mni tashkil etdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 18,9 %ga o'sdi. Savdo aylanmasining 82,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi, yirik korxonalar ulushi esa 17,6 %ni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati dinamikasi
2026-yil yanvar



IV. Uslubiy ma'lumotlar

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasining statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), "Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" (MDH qo'mitasi, 2011) xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalardan foydalaniladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlari norasmiy va yashirin iqtisodiyotning statistik baholash natijalari inobatga olingan holda hisoblanadi.

Ba'zi hollarda, jami sonlar yig'indisi o'rtasidagi kichik tafovutlar ma'lumotlarni yaxlitlash bilan izohlanadi.

V. Aloqador boshqa havolalar

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga mas'ul:

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi*

Manzil: 100170, Toshkent,

Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.

Elektron pochta: info@stat.uz

Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1185)

